
Aholini ro'yxatga olish jarayonida migratsiya masalalari

Umuman olganda, xalqaro va ichki migratsiya oqimlari murakkablik va ularning ko'lami jihatidan ham oshib bormoqda. Xususan, xalqaro migratsiya holatida muhojirlar oqimi sonini o'lchash kelib chiqadigan mamlakatlar va mezbon mamlakatlar yoki bir necha xorijiy davlatlarni qamrab oladigan doiraviy oqimlar o'rtasidagi ko'plab oqimlarni hisobga olishni talab qilishi mumkin. Xalqaro migratsiya ko'p millatli, ko'p oqimli va ko'p tilli jamiyatlarning shakllanishiga olib keladigan xilma-xillikni kuchaytiradi.

Migrantlarni ro'yxatga olishni rejalashtirish va amalga oshirishda, shuningdek, ularning tavsiflari va belgilarini ro'yxatdan o'tkazish uchun kontseptsiyalarni ishlab chiqarishda mamlakatning milliy huquqiy asoslari va o'ziga xos bo'lgan shartlari e'tiborga olinishi kerak.

Ro'yxatga olish doirasida migratsiya nuqtai nazaridan ikki xil jihat ajratilishi mumkin:

- xalqaro migrantlar va xalqaro migratsiya nuqtai nazaridan manfaatdor bo'lgan boshqa guruhlarining soni va kelib chiqadigan oqimlarini xalqaro oqimlarning vaqtinchalik va geografik xususiyatlari haqida ma'lumot bilan o'lchash;
- ichki migrantlarning soni va bundan tashqari oqimlarini ichki oqimlarning vaqtinchalik va geografik xususiyatlari haqida ma'lumot bilan o'lchash.

O.Pozilov

Farg'ona viloyati Quva tuman statistika bo'limi boshlig'i.

2021-12-22 22:34:14